Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya to‘plami
doi: 10.5281/zenodo.22693487
TIBBIYOT Tezis
ID: TIB-2026.09 - 003

BOLALARDA ICHAK TUTILISHLARINI ERTA TASHXISLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonov Farrux Furqatovich

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro shahri, O'zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-2159-3648

ANNOTATSIYA

Tezisda turli yosh guruhidagi bolalarda ichak tutilishining klinik ko'rinishiga xos xususiyatlari va erta tashxislashga to'sqinlik qiluvchi omillar 138 nafar bemor bola misolida o'rganilgan. Chaqaloqlik davrida nospetsifik simptomlar, maktab yoshida esa o'tkir appenditsitga o'xshash klinik manzara tashxislashning kechikishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Eng ko'p kechikish (>24 soat) chaqaloqlik va maktab yoshi guruhlarida qayd etilgan. Natijalar shifokorlarning yosh xususiyatlariga oid diagnostik ogohligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

ABSTRACT

This thesis explores the age-specific clinical features of intestinal obstruction in children and the factors hindering early diagnosis, based on a study of 138 pediatric patients. Nonspecific symptoms in infancy and a clinical picture resembling acute appendicitis in school-age children were identified as major causes of diagnostic delay. The longest delays (>24 hours) were recorded in the infant and school-age groups. The results indicate the need to raise physicians' diagnostic awareness of age-related clinical variations.

KALIT SO‘ZLAR: ichak tutilishi, bolalar, erta tashxis, yosh xususiyatlari, klinik belgilar.

KEYWORDS: intestinal obstruction, children, early diagnosis, age-specific features, clinical symptoms..

Tadqiqot maqsadi

Har xil yosh guruhidagi bolalarda ichak tutilishi klinik ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va erta tashxislashga to'sqinlik qiluvchi omillarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqot usullari.

Klinikaga 2021–2025 yillarda ichak tutilishi belgilari bilan murojaat qilgan 138 nafar bemor bola kuzatuvga olindi. Bemorlar yosh xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'lindi: chaqaloqlik davri (0–1 yosh, n=41), erta bolalik davri (1–3 yosh, n=52) va maktabgacha hamda maktab yoshi (3–14 yosh, n=45). Har bir guruhda birinchi belgi paydo bo'lishidan tibbiy muassasaga murojaat qilishgacha va tashxis qo'yilgunga qadar o'tgan vaqt, asosiy klinik simptomlarning uchrash chastotasi bilan birga tahlil qilindi.

doi: 10.5281/zenodo.22693487

Natijalar va muhokama.

Chaqaloqlik davrida ichak tutilishining klinik ko'rinishi ko'pincha nospetsifik xarakterga ega bo'lib (qayt qilish, bezovtalanish, ovqatlanishdan bosh tortish), bu guruhda o'rtacha tashxis muddati 18,4±4,2 soatni tashkil etdi. Erta bolalik davrida klassik triada (qorin og'rig'i, qayt qilish, "smorodina jele" ko'rinishidagi najas) bemorlarning atigi 43,3% ida to'liq namoyon bo'ldi, qolganlarida bitta yoki ikkita belgi kuzatilib, o'rtacha tashxis muddati 26,7±5,9 soatgacha uzaydi. Maktab yoshidagi bolalarda qorin og'rig'ining o'tkir appenditsit belgilariga o'xshashligi sababli 31,1% holatda dastlabki noto'g'ri tashxis qo'yilgan. Tashxis qo'yishning eng ko'p kechikishi (>24 soat) chaqaloqlik davri va maktab yoshi guruhlarida qayd etilib, bu ikki guruh birgalikda barcha kech tashxislangan holatlarning 71,2% ini tashkil qildi.

Xulosalar.

Bolalarda ichak tutilishining klinik ko'rinishi yosh davrlariga qarab sezilarli farqlanadi va bu holat erta tashxislashni murakkablashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chaqaloqlik davrida nospetsifik simptomlarga, maktab yoshida esa appenditsit bilan differensial tashxisga alohida e'tibor qaratish, shifokorlarning yosh xususiyatlariga oid diagnostik ogohligini oshirish tashxislash muddatini qisqartirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Bolalarda ichak tutilishlarini erta tashxislashning o'ziga xos xususiyatlari" (Qurbonov F.F.)
2. Pandey A., et al. When the Pediatric Gut Stops: The Pattern of Intestinal Obstruction in Children // Cureus. – 2025.
3. Xuan N.T., Son N.H., Thien H.H. Treatment Outcome of Acute Intussusception in Children Under Two Years of Age: A Prospective Cohort Study // Cureus. – 2020. – Vol. 12, № 4. – e7729.